

Students: Akramova Fayoza

Fayziyeva Sevinch

Assistent: Shakarov Allayor Baratovich

ANNOTATSIYA: *Mazkur maqola iqtisodiy tushunchalardan biri bo'lgan talab va taklif elastikligini tahlil qiladi. Elastiklik mahsulotga bo'lgan talab va taklifning o'zgaruvchanligiga ta'sir qiluvchi omillarni anglatadi va ularning miqdoriy o'zgarishlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Maqolada elastiklik turlari, uni hisoblash usullari va iqtisodiy jarayonlarga ta'siri, shuningdek, amaliy misollar orqali tushuntiriladi.*

Kalit so'zlar: *Talab elastikligi, taklif elastikligi, narx elastikligi, daromad elastikligi, o'zgarish, miqdoriy javob.*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida, respublika mintaqalarida bozor samaradorligini oshirish va uning baholash usullarini ishlab chiqish orqali mavjud taklif asosida aholining tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talablarini qondirishga qaratilgan.

Talab va taklif elastikligi — bu narx, daromad yoki boshqa iqtisodiy omillardagi o'zgarishlarga tovar va xizmatlarga bo'lgan talab va taklifning qanday sezgirlik ko'rsatishini o'lchaydigan muhim tushunchadir. Iqtisodiy tahlilda elastiklik darajasi iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilarning qanday reaksiyaga ega bo'lishlarini, shuningdek, narx siyosati va bozor muvozanatiga ta'sir ko'rsatishini aniqlashga yordam beradi. Talab elastikligi asosan iste'molchilarning qiziqishidagi o'zgarishlarni ifodalasa, taklif elastikligi ishlab chiqaruvchilar tomonidan taklif qilinadigan miqdorlarning o'zgarishini ko'rsatadi. Iqtisodiyotning turli sohalarida narxlar va iste'molchilar

daromadlarining o'zgarishi natijasida talab va taklifning sezgirligi bilan bog'liq ko'plab holatlar mavjud.

Talab elastikligi

Talab elastikligi — iste'molchilar tomonidan tovar yoki xizmatning narxi, daromadi yoki boshqa omillari o'zgarishida talabning qanday o'zgarishini bildiradi. Narx elastikligi talabga eng ko'p ta'sir ko'rsatuvchi omil bo'lib, koeffitsiyent yordamida ifodalanadi. Agar tovarning narxi oshsa va iste'molchilar buni kamroq iste'mol qilishga moyil bo'lsa, talab elastikligi yuqori deb hisoblanadi. Aksincha, agar iste'molchilar narx o'zgarishiga qaramay, tovarni iste'mol qilishda davom etsa, talab elastikligi past hisoblanadi.

Talab elastikligi turlari:

1. Narx elastikligi — narx o'zgarishi talabga qanchalik ta'sir qilayotganini ko'rsatadi.

2. Daromad elastikligi — iste'molchilar daromadlaridagi o'zgarishlarning talabga ta'sirini o'lchaydi.

3. Kross elastiklik — bir tovar narxining o'zgarishi boshqa tovarlarga bo'lgan talabga qanday ta'sir qilishi.

Taklif elastikligi

Taklif elastikligi esa ishlab chiqaruvchilar narx yoki boshqa omillarga qarab o'z mahsulot miqdorini qanday tezlikda o'zgartirishlari mumkinligini ko'rsatadi. Taklif elastikligi yuqori bo'lgan tovarlar odatda narx o'zgarishiga tezkor javob beradi, shuningdek, ishlab chiqarish hajmini mos ravishda o'zgartiradi. Past elastiklikka ega tovarlar esa narxdagi o'zgarishlarga kamroq sezgirlik ko'rsatadi.

Taklif elastikligi turlari:

1. Narx elastikligi — narx o'zgarishi mahsulot taklifiga qanchalik ta'sir qilayotganini ko'rsatadi.

2. Vaqt elastikligi — ishlab chiqarish hajmining vaqt davomida qanday tez moslashishini ifodalaydi.

Elastiklikning amaliy ahamiyati

Talab va taklif elastikligi narx belgilash, soliq siyosatini shakllantirish va bozor tahlillarida muhim rol o'ynaydi. Yuqori talab elastikligi bo'lgan tovarlar uchun narx o'zgarishi sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin, shuning uchun ishlab chiqaruvchilar narxlarni ehtiyotkorlik bilan belgilashlari lozim. Taklif elastikligi esa ishlab chiqarish hajmini va xarajatlarni rejalashtirishda yordam beradi. Bozordagi muvozanatni saqlash, narxlar barqarorligini ta'minlash va iqtisodiy o'sishga erishishda elastiklik nazariyasining o'rni juda muhimdir.

Talab qonuni iqtisodiy qonuniyatlardan biri bo'lib, unga ko'ra tovarlarga talab ularning narxiga teskari mutanosibdir. Talab qonunini miqdoran talab elastikligi (o'zgaruvchanligi) ifodalaydi, ya'ni narx o'zgarishiga javoban talab qanchalik o'zgarganini aniqlash mumkin bo'ladi. Ammo bu daromad ta'sirini ko'rsatmaydi. Narxga nisbatan talab elastikligi narx o'zgarishiga javoban talabning qay darajada o'zgarganligini bildiradi: agar talab sezilarli darajada o'zgarsa, talab elastik hisoblanadi; aksincha, ozgina o'zgarishda esa talab noelastik bo'ladi.

Talabning elastikligini odatda to'rt omil shakllantiradi. Birinchi omil tovarning turi bilan bog'liq. Tovarlarni ikki xil bo'ladi: a) kundalik zarur tovarlar, bular keng iste'molda; b) hashamat yoki zarur bo'lmagan, obro' yoki zeb-ziynat uchun iste'mol qilinadigan tovarlar, ko'proq ma'lum xaridorlar tomonidan sotib olinadi. Kundalik tovarlar talab elastikligi kam bo'ladi, chunki narx o'zgarishiga talab unchalik ta'sir qilmaydi. Masalan, Sirdaryo baliq narxi 20 % oshganda talab 22 % qisqarishi mumkin, noyob osyotra baliq narxi esa 20 % oshsa, talab 50 % kamayadi, chunki xaridorlar soni cheklangan. Ba'zi zaruriy tovarlarda esa narx o'zgarishi talab elastikligiga ta'sir qilmaydi. Masalan, non, tuz, gaz, elektr energiyasi kabi tovarlar narxining oshishi talabni deyarli o'zgartirmaydi, chunki ulardan voz kechish qiyin. Masalan, xonadon kuniga 10 ta non xarid qiladi va non narxi 10 % oshsa ham, xonadon baribir o'sha miqdorni oladi, boshqa xaridlarni kamaytirishi mumkin.

XULOSA

Barcha ko'rsatilganlarni xulosalaylik, Mazkur maqola tahlil natijalariga asosan, Talab va taklif elastikligi iqtisodiyotda iste'molchi va ishlab

chiqaruvchilarning narx va boshqa omillarga nisbatan sezgirligini aniqlash uchun zarurdir. Elastiklikning turlari va ularning iqtisodiy qarorlarga ta'siri bozorda samarali boshqaruv uchun muhim axborot beradi. Yuqori elastiklik tovar va xizmatlar talab va taklifiga tezkor moslashish imkonini berib, iqtisodiy rivojlanish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Shuning uchun elastiklik koeffitsiyentlarini hisoblash va tahlil qilish iqtisodiy siyosatni shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Begaliev, T., "Iqtisodiyot asoslari," Toshkent, 2018.
2. Qobilov, N., "Bozor mexanizmlarining rivojlanishi va iqtisodiy o'sish," Toshkent, 2019.
3. O'zbek iqtisodiy ensiklopediyasi, "Elastiklik nazariyasi va uning qo'llanilishi," Toshkent, 2021.
4. Samuelson, P., "Iqtisodiyot asoslari," Toshkent tarjimasi, 2020.